



TO'RTKO'L TUMANIDA AHOLINING TABIIY HARA-KATI VA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR DINAMIKASI

Arazklichev Serdar Avezklichevich,

Namangan davlat universiteti (Namangan shahri, O'zbekiston),

1-kurs magistranti Tel: +998993194868

E-mail: serdararazklichev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani aholisiga umumiy tavsif berilgan va tadqiq qilingan. Asosiy e'tibor doimiy aholi sonining yillar davomida o'zgarib borishi tug'ulish, o'lim, tabiiy o'sish, ko'chib keluvchilar va ketuvchilar shuningdek nikoh va ajrim kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilishga qaratilgan. Aholi takror barpo bo'lishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik, asosiy demografik jarayonlarning rivojlanishini baholash, jamiyat tarkibida migratsiya, tug'ulish, o'lim koeffitsiyentlari kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois, maqolada aholining prognozlashtirilgan o'sishiga tayangan holda hududni barqaror rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, aholi joylashuvini tartibga solish va sotsial jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Aholi, tug'ulish, o'lim, tabiiy ko'payish, nikoh, ajrim, dinamika, zichlik, tuman, qishloq, emigratsiya, immigratsiya, urbanizatsiya.

ЕСТЕСТВЕННОЕ ДВИЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ И ДИНАМИКА ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ТУРТКУЛЬСКОМ РАЙОНЕ

Аннотация. В данной статье дана общая характеристика и проведено исследование населения Турткульского района Республики Каракалпакстан. Основное внимание уделено анализу изменений численности постоянного



населения по годам, а также таким показателям, как рождаемость, смертность, естественный прирост, миграция (прибывшие и выбывшие), брачность и разводимость. Особое внимание обращено на взаимосвязь между воспроизводством населения и социально-экономическим развитием, оценку динамики основных демографических процессов, а также на такие вопросы, как коэффициенты миграции, рождаемости и смертности в структуре общества. В связи с этим в статье на основе прогнозируемого роста населения разработаны предложения и рекомендации по обеспечению устойчивого развития территории, эффективному использованию ресурсов, регулированию расселения населения и оптимизации социальных процессов.

Ключевые слова: Население, рождаемость, смертность, естественный прирост, брак, развод, динамика, плотность (населения), район, деревня, иммиграция, урбанизация.

NATURAL POPULATION MOVEMENT AND THE DYNAMICS OF DEMOGRAPHIC CHANGES IN THE TURTKUL DISTRICT

Abstract. This article provides a general description and an in-depth study of the population of the Turtkul district of the Republic of Karakalpakstan. The main focus is on analyzing changes in the size of the permanent population over the years, as well as such indicators as birth rate, death rate, natural increase, migration (in-migration and out-migration), marriage, and divorce. Particular attention is paid to the relationship between population reproduction and socio-economic development, the assessment of the dynamics of key demographic processes, and issues such as migration, birth, and death coefficients within the structure of society. Therefore, based on the projected population growth, the article develops proposals and recommendations aimed at ensuring sustainable territorial development, efficient use of resources, regulation of population settlement, and optimization of social processes.



Keyword: Population, birth rate, mortality, natural increase, marriage, divorce, dynamics, density (population density), district, village, emigration, immigration, urbanization.

KIRISH. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aksariyat qishloq tumanlarining tabiiy-xo‘jalik sharoiti turli-tumanligi bois, ularning aholisi soni, zichligi, aholining takror barpo bo‘lish xususiyatlari va aholi punktlarining katta-kichikligi, konfiguratsiyasi, joylashuvi hamda tarkibi bir biridan sezilarli farq qiladi.

Shu jihatdan, doimiy aholi sonini o‘rganish geografiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi, zero ushbu tadqiqotlar aholining hududlar bo‘ylab taqsimlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va atrof-muhitga ta‘sirini tushunish imkonini beradi.

To‘rtko‘l tumani Qoraqalpog‘iston Respublikasining eng sharqida joylashgan va aholisining asosiy qismi Amudaryo daryosining o‘ng qirg‘og‘ida unumdor tuproqli yerlarda istiqomat qiluvchi hududlaridan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda demografik jarayonlar dinamikasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Aholi sonining izchil o‘sishi, mehnat resurslarida yoshlar ulushining yuqoriligi, mavsumiy mehnat migratsiyasining kuchayishi hamda qishloq aholi punktlarining nisbatan notekis rivojlanishi tumanda demografik jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish zaruratini oshirmoqda. Tumanda sug‘oriladigan yer maydonlarining cheklanganligi, suv resurslariga bo‘lgan talabning ayniqsa so‘ngi yillarda ortib borishi va agrar xo‘jalikning iqtisodiy tizimdagi ustuvor o‘rni aholi joylashuvi, bandlik strukturasining shakllanishi va tabiiy harakat ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan ham To‘rtko‘l tumani aholisining tabiiy harakati va uning hududiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rganish – mavjud resurslardan oqilona foydalanish, aholi uchun zarur infratuzilmani rejalashtirish hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.



Mazkur maqolaning maqsadi: To‘rtko‘l tumanida kechayotgan geodemografik transformatsiya jarayonlari – aholining tabiiy o‘ssishi, migratsiya harakatidagi o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- demografik ko‘rsatkichlarni aholi takror barpo bo‘lishining jadal sur’atlarda davom etayotgan so‘nggi 15 yillik holatini tahlil qilish;
- aholining tabiiy harakatiga va dinamikasiga ta’sir etuvchi geodemografik omillarni aniqlash;
- geodemografik o‘zgarishlarning tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholash

MATERIAL VA METODOLOGIYA. Tadqiqotning asosiy ma’lumotlar bazasi sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi va To‘rtko‘l tumanida 2010–2024 yillar oralig‘idagi tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajrim va tabiiy o‘ssish bo‘yicha yillik statistik ko‘rsatkichlar olindi. Tanlangan davr geodemografik jarayonlarning transformatsiyasi, urbanizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning sezilarli o‘zgarishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, dinamik qatorlardagi o‘zgarishlarni aniq baholash uchun vaqt qatorlari tahlili qo‘llandi.

Tahlillarni amalga oshirishda geografik taqqoslash, monografik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi demografik jarayonlarning faqat statistik ko‘rsatkichlar orqali emas, balki ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy va ekologik omillar bilan bog‘liq holda kompleks tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Shu orqali To‘rtko‘l tumanidagi tug‘ilish va o‘lim jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochib berish, mavjud



demografik dinamikasidagi o'zgarishlarni aniqlash va ularning istiqboldagi yo'nalishlarini belgilash imkoni yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. To'rtko'l tumani aholisi tabiiy harakati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mamlakat geodemografik jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan klassik va zamonaviy manbalarga tayangan holda olib borildi. O'zbekiston demografik rivojlanishi, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, tug'ilish va o'lim jarayonlarining hududiy farqlanishi bo'yicha Z.N.Tojiyeva [4], Q.X.Abdurahmonov [5], M.Q.Qoraxonov [6], I.R.Mullajonov [10], A.S.Soliyev [2], A.A.Qayumov [8], M.Bo'riyeva [9], N.Komilova [11], R.G.Asanov [12], kabi olimlarning demografik-geografik izlanishlari tadqiqot uchun metodik asos bo'lib xizmat qildi.


Shuningdek, aholi tarkibi va dinamikasining hududiy ko'rinishlari bo'yicha xalqaro demografik maktab vakillarining - J.Notestein, F.V.Buniakovskiy, A.Sauvi va boshqa mualliflarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

ASOSIY QISM. Amerikalik mashhur olim Uolter Ayzardning fikricha, har qanday hudud xo'jaligi murakkab va ko'p omilli tizim bo'lib, uning mazmunini anglash hamda rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda tahlilni aynan aholi bo'g'inidan boshlash zarur [2; 22-b.]. Mazkur yondashuv hudud iqtisodiyotining asosiy subyekti va harakatlantiruvchi kuchi sifatida aholi omilining ustuvorligini ko'rsatadi. Shu bois hududiy iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish va xizmatlar tizimi, mehnat resurslarining shakllanishi hamda hududiy rivojlanish istiqbollari bevosita demografik vaziyat bilan belgilanadi. Demak, mavjud demografik holatni chuqur tahlil qilish va uning asosida kelajakdagi aholi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ilmiy prognozlash hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, demografik vaziyat – ma'lum hudud aholisi holatining integrallashgan manzarasi bo'lib, aholi soni, tarkibi (yosh-jins), hududiy taqsimoti, zichligi va ularni belgilovchi jarayonlar (tug'ilish, o'lim, migratsiya)ning muayyan paytdagi kombinatsiyasi hisoblanadi [3].



To'rtko'l tumani Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining 4,49 foizini egallagan bo'lsa-da, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanda 232,5 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Bu ko'rsatkich respublika umumiy aholisining 11,5 foiziga to'g'ri keladi [13]. To'rtko'l aholi takror barpo bo'lishining progressiv modeliga mansub bo'lib, respublika bo'yicha aholisi tez sur'atlarda o'sib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi (1-jadval).

To'rtko'l tumani aholisi tabiiy harakatining 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinganda, demografik jarayonlarda barqaror, ammo o'zgaruvchan tendensiyalarning shakllanganini kuzatish mumkin. Ushbu davr mobaynida To'rtko'l tumani aholisi muntazam ravishda o'sib borganini ko'rishimiz mumkin va davr boshidan (175 400 kishi) davr oxiriga (228 800 kishi) qadar aholi salkam 130,4 % ga ortgan (1-rasm). Grafikdan ko'rinadiki, o'sish jarayoni izchil va barqaror bo'lib, keskin pasayish yoki to'xtab qolish kuzatilmagan.



1-rasm. To'rtko'l tumani aholisi dinamikasi (2010-2024-yillar) [13]



1-jadval. To'rtko'l tumani aholisi demografik xususiyatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2010-2024-yillar)

T/r	Yillar	Doimiy aholi soni (ming kishi)	Tug'ilish (kishi)	O'lim (kishi)	Tabiiy o'sish (kishi)	Ko'chib ketganlar (kishi)	Ko'chib kelganlar (kishi)	Migratsiya soldotsi (kishi)	Aholi zichligi	Shahar aholisi (ming kishi)	Qishloq aholisi (ming kishi)	Urbanizatsiya
1	2010	175 400	3997	811	3186	1009	705	-304	23,4	68 600	106 800	39,1%
2	2011	178 300	3797	815	2982	913	752	-161	24,5	69 600	108 700	39,0%
3	2012	185 900	4256	828	3428	796	583	-213	24,9	73 200	112 700	39,4%
4	2013	189 000	4481	819	3662	708	632	-76	25,3	74 100	114 900	39,2%
5	2014	192 600	4483	885	3598	723	562	-161	25,7	75 100	117 500	39,0%
6	2015	196 100	4693	919	3774	673	528	-145	26,2	76 000	120 100	38,8%
7	2016	199 700	4375	878	3497	678	576	-102	26,7	77 000	122 700	38,6%
8	2017	203 100	4482	988	3494	756	587	-169	27,2	78 200	124 900	38,5%
9	2018	206 400	4855	916	3939	571	503	-68	27,6	79 300	127 100	38,4%
10	2019	210 300	4894	931	3963	586	578	-8	28,1	80 500	129 800	38,3%
11	2020	214 300	4595	987	3608	663	452	-211	28,6	81 800	132 500	38,2%
12	2021	217 700	4567	1018	3549	706	512	-194	29,1	82 800	134 900	38,0%
13	2022	221 000	4971	1064	3907	548	390	-158	29,5	83 900	137 100	38,0%
14	2023	224 700	5203	975	4228	622	424	-198	30,0	84 700	140 000	37,7%
15	2024	228 800	5012	1139	3873	672	518	-154	30,6	85 600	143 200	37,4%


Izoh: Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi [7]

Izoh: Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi [7]

Aholi sonining ko'payishida, asosan, tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi va tabiiy o'sish jarayonlarining ustuvorligi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasi muayyan darajada kuzatilgan bo'lsa-da, u aholining kamayishiga olib kelmagan, balki chet eldan yuboriladigan pul o'tkazmalari orqali mahalliy uy-joy qurilishi, infratuzilma va urbanistik rivojlanishni qo'llab-quvvatlagan. 2010–2017-yillarda aholi yillik o'rtacha 3–3,5 ming kishidan ortib borgan bo'lsa, 2016–2020-yillarda bu ko'rsatkich yanada barqarorlashgan va migratsion oqimlar muvozanatlashgan hamda 2020-yilda aholining yillik ko'payishi 4 minglik chegaradan o'tgan. Biroq 2021-yilda bu



ko'rsatkich keskin kamaygan bunga sabab pandemiya davrida tuzilgan nikohlar sonining kamligi va tug'ulish jarayonlarining kamayib ketganligi bilan ifodalanadi. Pandemiya keyingi davrda aholining yillik ko'payishi yana oldingi holatiga qaytdi va barqaror o'sish kuzatilmoqda.



2-rasm. To'rtko'l tumanida nikoh va ajrim ko'rsatkichlari (2010-2024-yillar) [13][14]

Aholining takror barpo bo'lishi hududning eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Aholining ko'payishi yoxud kamayishi aholi o'rtasida tug'ilish va o'lim jarayonlari bilan bog'liq. Ular esa nikoh va ajralish bilan bevosita aloqador. Jumladan, To'rtko'l tumanida aholining ming yillardan buyon asosan daryo bo'ylarida o'troq hayot kechirishi, cheklangan resurslar sharoitda o'zaro kuchli bog'langan ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi hamda turmush tarzining o'ziga xosligi sabab nikoh va ajralish jarayonlari ham boshqa hududlardan farq qiladi.



Jumladan, tahlil uchun olingan 2010–2024-yillar oraligʻida nikoh va ajrim koʻrsatkichlari koʻrib chiqilganda, ularning rivojlanishida turli yoʻnalishlar hamda dinamik oʻzgarishlar kuzatiladi. (2-rasm). Nikoh koʻrsatkichlari 2010-2013-yillarda nisbatan yuqori boʻlganligi, 2014-2016-yillarda nikoh koʻrsatkichlarida nisbatan pasayish kuzatilgan, 2017-yilda esa yana keskin koʻtarilgan. Bunga sabab sifatida 2017-yildan boshlab mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlar tuman hayotida ham yaqqol koʻzga tashlangan. Nikoh koeffitsienti 2020-yilda eng past darajaga (6,4 %) tushgan boʻlib, bunga global miqyosdagi voqealar, xususan pandemiya sharoitida joriy etilgan cheklovlar hamda nikoh marosimlarini oʻtkazishga qoʻyilgan cheklovlar sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Biroq 2021-yildan boshlab koʻrsatkichlar yana keskin koʻtarila boshlaganini kuzatishimiz mumkin. Binobarin, karantin cheklovlarining yumshatilishi va kechiktirilgan statistik qaydlar boʻlishi mumkin. Tumanda nikoh koʻrsatkichlari tanlangan davr mobaynida 22 % ga pasayish kuzatilgan.


Tumanda ajrim koʻrsatkichlari soni 2010-2024-yillar oraligʻida bir xil dinamikada oʻzgarib borganini koʻrishimiz mumkin (2-rasm). Ajrim koʻrsatkichlari 2010-yilda 0,4 % ni tashkil etgan boʻlsa bu koʻrsatkich 2024-yilga kelib 0,9 % ni tashkil etayotganligini koʻrishimiz mumkin. Tumanda ajrimlar soni 15 yil davomida qariyb 125 foizga oshgani kuzatiladi.

Toʻrtkoʻl tumani aholisi tabiiy harakati Qoraqalpogʻiston Respublikasi miqyosidagi umumiy demografik tendensiyalar bilan uygʻun boʻlsa-da, ayrim hududiy xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, tuman aholisi nisbatan yosh demografik tuzilishga ega boʻlib, bu holat tugʻilishning yuqori koʻrsatkichlariga bevosita taʼsir qiladi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining yuqoriligi iqtisodiy faol aholining salmogʻini oshirmoqda. Ikkinchidan, hududda soʻnggi yillarda urbanizatsiya jarayonlari sezilarli oʻzgarmoqda. Tumanning markaziy qismi va yangi qurilayotgan massivlarda aholi zichligining oshishi tabiiy harakat



ko'rsatkichlarida tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi, yangi sanoat va infratuzilma obyektlarining barpo etilishi oilalarning reproduktiv xulq-atvoriga ta'sir qilmoqda. Uchinchidan, ekologik sharoitlarning yaxshilanishi, ichimlik suvi ta'minoti va sanitariya holatining barqarorlashuvi o'lim ko'rsatkichlarining nisbatan past bo'lishiga yordam bermoqda. Bu esa tabiiy o'sishning barqaror saqlanishiga imkon yaratmoqda.

Hududiy farqlanishlar shuni ko'rsatadiki, To'rtko'l tumanidagi demografik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, urbanizatsiya va infratuzilma rivoji bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanmoqda.



3-rasm. To'rtko'l tumanida aholi takror barpo bo'lish dinamikasi (2010-2024-yillar) [13][14]



2010–2024-yillar davomida To‘rtko‘l tumanida tug‘ilish darajasi nisbatan barqaror, biroq tebranishli dinamikani namoyon etgan. 2010-yilda tug‘ilish ko‘rsatkichi 22,8% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda 23,9% bilan eng yuqori nuqtaga yetgan. 2016-yilda esa keskin pasayish kuzatilib (21,9%), keyingi yillarda yana o‘rtacha 22–23% atrofida shakllangan (3-rasm). Bunga bir qancha sabablarni misol qilib keltirishimiz mumkin: aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli va reproduktiv yoshdagi qatlam ulushining yuqoriligi, 2014–2015-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning nisbatan kuchayishi, 2016-yildan boshlab oilani rejalashtirish siyosatining kuchayishi va migratsiya jarayonlarining faollashuvi. Natijada bu sabablar quyidagicha oqibatlarni keltirib chiqargan – tabiiy aholi o‘shining saqlanib qolishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilmalarga bo‘lgan bosimning ortishi.

Tahlil qilinayotgan davrda o‘lim ko‘rsatkichlari 4,3–5,0% oralig‘ida tebrangan bo‘lib, 2010–2013-yillarda ularning pasayishi qayd etilgan. Keyingi yillarda, xususan 2017-yildan so‘ng o‘lim darajasida nisbiy o‘sh kuzatilib, 2024-yilda mazkur ko‘rsatkich 5,0% ga yetgan (3-rasm). Mazkur jarayonlar fonida migratsion harakatlar ham demografik holatga muhim ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, immigratsiya ko‘rsatkichlari umumiy dinamikada pasayuvchi yo‘nalishga ega bo‘lib, 2010-yildagi 4,0% darajadan 2022-yilda 1,8% gacha kamaygan. Shu bilan birga, ayrim yillarda, jumladan 2019 va 2024-yillarda immigratsiya oqimlarida qisqa muddatli nisbiy tiklanish holatlari qayd etilgan (3-rasm).

Emigratsiya ko‘rsatkichlari 2010-yilda 5,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilda 2,8% gacha kamaygan. Biroq keyingi yillarda (2020–2024) yana biroz o‘sh qayd etilgan (3-rasm). Emigratsiya jarayonlaridagi bunday o‘zgarishlarga tahlil qilinayotgan davr boshida (2010-2016-yillar) emigratsiya ko‘rsatkichlarining yuqoriligi va bunga bir qancha omillar sabab bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Dastlab bu yillar davomida tuman iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi birmuncha sust bo‘lganligi bois ish



resurslarining yetishmasligi, tuman aholisining salmoqli qismini tashkil qiladigan etnik qozoqlarning qo'shni mamlakat Qozog'istonga doimiy yashash uchun ko'chib ketganligi bilan izohlasak mubolog'a bo'lmaydi. Davr o'rtasiga kelib ya'ni 2016-2020-yillarda emigratsiya ko'rsatkichlari birmuncha pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida mamlakatimiz hayotida siyosiy tuzilmaning o'zgarganligi va mamlakatimiz raxbarining faol isloxotlari tuman hayotidagi o'zgarishlarda ham o'z aksini topa boshladi. Buning natijasida tuman ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli biroz yaxshilandi va ko'chib ketishga hohish biroz pasaydi. Keyingi yillarda emigratsiya ko'rsatkichlarida yana birozgina yuqorilash kuzatilgan. Bunda ko'chib ketuvchilarning asosiy qismini mamlakat ichkarisidagi migratsiya tashkil qilgan. Ya'ni tumandagi emigrantlarning asosiy qismi poytaxt va markaz shaharlar tomon intilganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda olib borilgan faol islohotlar va qonunchilikdagi bir qancha o'zgarishlar (14.09.2011 yildagi O'RQ-296-son qonunining bekor qilinishi) ham o'z tasirini o'tkazmasdan qolmadi [15]

2010–2024-yillarda To'rtko'l tumanida tabiiy o'sish saqlanib qolgan, biroq migratsiya saldosi salbiylashish tendensiyasiga ega. Tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi aholi sonining kamayib ketishini jilovlab turgan bo'lsa-da, immigratsiyaning pasayishi va emigratsiyaning mavjudligi uzoq muddatda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa sifatida keltirish mumkin:

1. 2010–2024-yillar davomida To'rtko'l tumanida demografik rivojlanish jarayonlari murakkab va ko'p omilli xususiyat kasb etgani aniqlandi. Tug'ilish ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi tabiiy aholi o'sishini ta'minlab kelayotgan asosiy omil hisoblanadi.

2. O'lim darajasining sekin-asta oshib borishi, ayniqsa so'nggi yillarda kuzatilgan o'zgarishlar sog'liqni saqlash, ekologik sharoit va aholi turmush sifati



bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi hamda umumiy demografik barqarorlikka salbiy ta‘sir etmoqda.

3. Migratsiya jarayonlari tahlili To‘rtko‘l tumanining asosan aholini yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Yoshlar va mehnatga layoqatli aholining yirik shaharlar hamda xorijga chiqib ketishi uzoq muddatda mehnat resurslari tanqisligiga olib kelish xavfini kuchaytirmoqda.

4. Nikoh va ajrimlar dinamikasi reproduktiv xulq-atvorda muayyan o‘zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi. Ajrimlar sonining ortishi va nikoh yoshining kechikishi tug‘ilish jarayonlarining kelajakdagi barqarorligiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim omil sifatida baholanadi.

5. Urbanizatsiya jarayonlari tumanda notekis rivojlanmoqda: shaharga yaqin hududlarda aholi zichligi va migratsiya faolligi yuqori bo‘lsa, chekka qishloq hududlarida aholining kamayishi va infratuzilmaning sust rivojlanganligi kuzatilmoqda. Bu holat ichki migratsiyani kuchaytirib, hududiy-demografik nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda.

Umuman olganda, To‘rtko‘l tumanida demografik rivojlanish asosan tabiiy o‘rishga tayanib kelmoqda, biroq migratsiya, urbanizatsiya hamda nikoh-ajrim jarayonlari ushbu o‘rishni cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli hudud uchun kompleks demografik siyosat ishlab chiqish va uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gadoyev K., Berdiyeva S. “O‘zbek geografiya fani fidoyilari”. [To‘plam], Toshkent-2015, - 232b.



2. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi. II qism [Darslik]. – T.: Universitet nashriyoti, 2014. – 404 b.
3. Encyclopedia of World Geography Copyright / R.W. McColl, general editor. – New York: Golson Books, 2005. ISBN: 978-0-8160-7229-3. – P. 1182.
4. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари // г.ф.д. (DSc) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – 76 б.
5. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O‘quv qo‘llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
6. Караханов М.К. Подготовка и использование квалифицированных кадров рабочих и специалистов в Узбекистане в послевоенный период: автореферат дис. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1958. – 17 с. URL:<https://search.rsl.ru/ru/record/01006293471>
7. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: “Mashrab”, 2024. – 408 b.
8. Qayumov, A.A., Yakubov O‘.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.
9. Bo‘riyeva M. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 157 b.
10. Муллядзянов И.Р., Ата-Мирзаев О.Б., Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане (рецензия) // Общественные науки в Узбекистане. – 1992. – № 3. – С. 63.



11. Komilova N.K., Jumaxanov Sh.Z. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi [Darslik]. – T.: “Universitet”, 2021. – B. 444
12. Asanov R.G. Aholi geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi rasmiy sayti. 12.12.2025. URL: <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. 12.12.2025. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
15. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.07.2025 yildagi O‘RQ-1074-son <https://lex.uz/docs/-7623461>